

“TASDIQLANGAN”

“Madad Invest Bank” aksiyadorlik tijorat banki aksiyadorlarining umumiyligining 2024 yil 15 apreldagi 17 - sonli bayonnomasiga 6-ilova

Kuzatuv kengashi raisi:



SH.R.Xadjizadayev

**“MADAD INVEST BANK” AKSIYADORLIK TIJORAT  
BANKI KUZATUV KENGASHI TO‘G‘RISIDA  
NIZOM**

## MUNDARIJA

.....	1
<b>1-bob. Umumiy qoidalar .....</b>	<b>3</b>
<b>2-bob. Bank Kuzatuv kengashining vazifalari va vakolati.....</b>	<b>3</b>
<b>3-bob. Bank Kuzatuv kengashining majburiyatlari.....</b>	<b>5</b>
<b>4-bob. Bank Kuzatuv kengashini saylash.....</b>	<b>6</b>
<b>5-bob. Kuzatuv kengashi a'zolarining huquqlari va majburiyatlari .....</b>	<b>8</b>
<b>6-bob. Bank aksiyadorlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish .....</b>	<b>8</b>
<b>7-bob. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarligi.....</b>	<b>9</b>
<b>8-bob. Yakuniy qoidalar .....</b>	<b>9</b>

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “mybank” “Madad Invest Bank” aksiyadorlik tijorat banki (bundan buyon matnda Bank deb yuritiladi) Kuzatuv kengashining maqomi, Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash tartibi, ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi va Kuzatuv kengashi faoliyatini tartibga soladi.

2. Nizom O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” qonunlari va boshqa qonun hujjatlariga hamda Bank Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

## 2-bob. Bank Kuzatuv kengashining vazifalari va vakolati

3. Kuzatuv kengashi Bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, qonunchilik va Bank Ustaviga asosan Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

4. Kuzatuv kengashi Boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi.

5. Kuzatuv kengashi Bankni samarali va tadbirli boshqarishni tashkil etadi.

6. Kuzatuv kengashi ishining samaradorligini ta’minalash, eng muhim masalalarni ko‘rib chiqish va taklif va tavsiyalar tayyorlash uchun Kuzatuv kengashi tarkibida qo‘mitalar tashkil etiladi.

7. Kuzatuv kengashi o‘z faoliyatini amaldagi qonunchilik, bank ustavi, Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlanadigan “Bank Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

8. Kuzatuv kengashi a’zolari bankni boshqarishda bank korporativ boshqaruviga ko‘maklashishi hamda o‘z vakolatlaridan foydalanish va majburiyatlarini bajarish chog‘ida bank, uning omonatchilarini, aksiyadorlari hamda kreditorlarining qonuniy manfaatlarini inobatga olishi, shuningdek Markaziy bank bilan samarali hamkorlikni ta’minalashi kerak.

9. Kuzatuv kengashi Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga hisobdordir.

10. Kengash a’zolaridan o‘z vazifalarini amalga oshirishlari doirasida quyidagilar talab etiladi:

faoliyat yuritayotgan bank korporativ boshqaruvining tashkiliy tuzilmasini, Kuzatuv kengashining va o‘zlari a’zo bo‘ladigan qo‘mitalar funksiyalarini bilishi, korporativ boshqaruvdagi o‘zining o‘rnini anglashi, bank faoliyatiga xos bo‘lgan tavakkalchiliklar haqida tasavvurga ega bo‘lishi, shuningdek, bank-moliya sohasidagi, tavakkalchiliklarni boshqarish va korporativ boshqaruvni tashkil etish borasidagi bilim va malakasini doimiy ravishda oshirib borishi;

bank faoliyatida faol qatnashishi, uning faoliyatidagi va tashqi sharoitlardagi muhim o‘zgarishlarni kuzatib borishi, shuningdek, uzoq muddatli istiqbolda bank manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan choralarini o‘z vaqtida ko‘rishi;

bankning korporativ madaniyati va qadriyatlari shakllanishida o‘z hissasini qo‘shishi;

ko‘rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan Kuzatuv kengashining boshqa a’zolari, Boshqaruv a’zolari va bank xodimlarining qarashlaridan qat’iy nazar o‘zining asoslangan fikrini bildirishi;

mas’uliyatni his qilgan holda javobgarlikni va jonkuyarlikni namoyon qilishi, sodiqlik bilan xizmat qilishi, bank va uning aksiyadori manfaatlarini ko‘zlab, yuklatilgan vazifa va majburiyatlarini vijdongan va oqilona amalga oshirishi, o‘zining yoki ayrim shaxslar manfaatlari yo‘lida o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilmasligi;

manfaatlar to‘qnashuviga olib keluvchi harakatlardan qochishi, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganligi haqida darhol kengashga xabar berishi va uni bartaraf etish yuzasidan chora ko‘rishi;

kengash va uning qo‘mitalari majlislarida o‘z vakolatlarini uchinchi shaxsga o‘tkazmagan holda ishtirok etishi;

kengashga a’zoligi chog‘ida o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan tijorat, bank siri va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarning maxfiyligiga rioya etishi.

11. Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Bank Boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borish;

Aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiyligini yig‘ilishlarini chaqirish, qonunchilikda nazarda tutilgan xollar bundan mustasno;

Aksiyadorlar umumiyligini yig‘ilishining kun tartibini tayyorlash;

Aksiyadorlarning umumiyligini yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

Aksiyadorlarning umumiyligini yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun Bank aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

ustavga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, uni yangi tahrirda tasdiqlash masalalarini Aksiyadorlik umumiyligini yig‘ilishi hal qilishi uchun kiritish, Kuzatuv kengashi vakolatiga berilgan masalalar bundan mustasno;

mol-mulkining bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

aksiyalarni chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror va emissiya risolasini tasdiqlash, shuningdek avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

yillik biznes-rejani tasdiqlash;

korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayriboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida va korporativ obligatsiyalarni qaytarib sotib olish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

depozit sertifikatlari va boshqa qarz majburiyatlarini, shuningdek qimmatli qog‘ozlarning hosilalarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

Boshqaruvi Raisi va a‘zolarini tayinlash, ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Bankning ijroiya organi a‘zolariga to‘lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorini belgilash;

ichki audit xizmatini tashkil etish, uning xodimlarini tayinlash va Ichki audit xizmati to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash, har chorakda Ichki audit xizmati hisobotlarini eshitib borish;

Boshqaruv faoliyatiga dahldor har qanday hujjatdan erkin foydalanish va Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Bank Boshqaruvidan tegishli hujjatlarni olish (Kuzatuv kengashi va uning a‘zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishlari mumkin);

aksiyalar bo‘yicha dividendlar miqdori, ularni to‘lash shakli va tartibi yuzasidan takliflar kiritish;

qonunchilik va bank ichki hujjatlarida belgilangan tartibda yirik bitimlar va bankka aloqador shaxslar, affilangan shaxslar bilan bitimlar tuzish;

zahira fondi va boshqa fondlaridan foydalanish to‘g‘risidagi Boshqaruv takliflarini ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish;

Bank filiallarini hamda vakolatxonalarini tashkil etish, ochish va tugatish, ularning nizomlarini tasdiqlash va o‘zgartirish kiritish;

Bankning sho‘ba va tobe jamiyatlarini tashkil etish masalalarini xal etish;

qonunchilikda belgilangan tartibda Bankning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog‘liq bitimlarni tuzish haqida qaror qabul qilish;

qonunchilikda belgilangan doirada barcha aksiyadorlarga ma’lumotlarni oshkor etgan tarzda homiylik (xayriya) ko‘rsatish tartibi va shartlarini belgilash hamda bu borada qarorlar qabul qilish;

Bank korporativ maslahatchisini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlash bo'yicha qaror qabul qilish;

xodimlar mehnatiga haq to'lash va ularni rag'batlantirish shartlari va tizimini belgilash;

Bankning strategik maqsadlarini, kredit, emissiya, kadrlar, investitsiya, dividend, Bankning tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to'g'risida xabardor etish (tavakkalchiliklarni boshqarish) siyosatlarini, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini, shuningdek risk-appetit bayonoti, yangi mahsulotlarni joriy etish siyosati, stress-test o'tkazish tartibini, Bankning boshqa siyosatlarini va tegishli ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;

aktivlarni tasniflash asosida aktivlar bo'yicha ehtimoldagi zararlarga qarshi yaratiladigan zaxiralar shakllantirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek kapital va umumiylarining yetarli darajada saqlab turilishini ta'minlash;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish siyosati, korrupsiyani oldini olish choralar, odob axloq qoidalarini tasdiqlash;

Bankning moliyaviy holatini tiklash rejalarini tasdiqlash;

Bank Boshqaruvi faoliyati nazoratini amalga oshirish;

boshqarish tizimi samaradorligini davriy baholashni amalga oshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli choralarini ko'rish;

aktiv operatsiyalar, shu jumladan kredit, lizing, qarz, faktoring, savdoni moliyalashtirish va kafolat hamda bank balansiga qarz evaziga qabul qilinayotgan mol-mulklar shuningdek, bank faoliyati uchun zarur bo'lgan xaridlar limitlarini ichki hujjatlarda belgilash;

bir yilda kamida bir marta amalga oshirilgan nazorat va tekshiruv faoliyati to'g'risida Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishiga hisobot taqdim etish;

amaldagi qonunchilik, ushbu Ustav va Bankning boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni hal etish.

12. Ish samaradorligini ta'minlash maqsadida Kuzatuv kengashi tarkibida maxsus qo'mitalar jumladan, audit qo'mitasi, tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasi, mukofotlash qo'mitasi, shuningdek, boshqa qo'mitalar tashkil etishi mumkin;

13. Har bir qo'mitaning ishslash tamoyillari, vakolatlari, majburiyatlar, vazifalari, ish tartibi, yig'ilishlar davriyligi hamda kengashga hisobotlar taqdim qilish tartibi va muddatlar, shuningdek, boshqa masalalarni qamrab olgan qo'mita to'g'risida Nizom kengash tomonidan tasdiqlanadi.

14. Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlariga va mazkur Nizomga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.

15. Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga Qonun bilan kiritilgan masalalar hal qilish uchun bank Boshqaruviga o'tkazilishi mumkin emas.

### **3-bob. Bank Kuzatuv kengashining majburiyatları**

16. Quyidagilar bank Kuzatuv kengashining majburiyatlarini hisoblanadi:

o'z vakolatlarini bank aksiyadorlari manfatlarini ko'zlab amalga oshirish;

bankka o'z vakolatlariga mos ravishda samarali rahbarlik qilinishini ta'minlash;

omonatchilar, kreditorlar va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida bank faoliyatini amaldagi qonunchilik hujjatlari talablari asosida amalga oshirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

bankning yetarli darajadagi kapitallashuvini, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining samarali joriy etilishini ta'minlash;

bank faoliyati strategiyasini shakllantirish;

har chorakda bank Boshqaruvi hisobotlarini, shuningdek bank likvidligini boshqarish va bankning yillik biznes-rejasini bajarish masalalarini eshitib borish;  
bankni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan biznes - rejalar ijrosini nazorat qilish;  
bankning foyda ko'rishi monitoringini olib borish;  
xizmat vazifalarini bajarishga mas'uliyat bilan yondashish;  
qonun hujjatlari, bank ustavi va bankning ichki hujjatlari talablariga rioya qilish.  
Kengash va boshqaruv a'zolarining sodiqlik bilan xizmat qilishiga quyidagilar kiradi:  
o'zlar bilan bog'liq barcha mavjud va ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish;  
o'z xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanmaslik;  
manfaatlar to'qnashushi mavjud bo'lganda va bank manfaatlari yo'lida o'z vazifalarini  
to'laqonli bajarishiga to'sqinlik qilgan taqdirda, qaror qabul qilishda qatnashmaslik.

#### **4-bob. Bank Kuzatuv kengashini saylash**

17. Kengashning tarkibi 5 (besh) kishidan iborat bo'ladi. Kengash a'zolari Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan 3 (uch) yil muddatga saylanadi.
18. Quyidagi hollarda shaxs Kuzatuv kengashi a'zoligiga saylanishi, mumkin emas yoki saylangan shaxs Kuzatuv kengashi a'zoligi huquqidan mahrum etiladi:
  - ikki yoki undan ortiq tijorat bankining kengashi a'zosi bo'lsa yoki a'zo bo'lish niyatida bo'lsa, bundan mazkur banklar bir bank guruhi tegishli bo'lgan hollar mustasno;
  - shaxsnинг vakolatlari Markaziy bank talabiga ko'ra muddatidan ilgari tugatilgan bo'lsa;
  - Bank kollegial asosidagi ijroiya organining (Boshqaruv) a'zosi bo'lsa;
  - Bankda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan bo'lsa.
19. Kengash tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun, Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari va mazkur Nizomda belgilab qo'yiladi.
20. Kengash Raisi Kengash a'zolari tomonidan ularning umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.
21. Kuzatuv kengashi raisi uning ishini tashkil etadi, majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi. Majlislarda bayonnomma yuritilishini tashkil etadi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi. Kengashi raisi bo'lmagan taqdirda, uning vazifasini kengashning a'zolaridan biri amalga oshiradi.
22. Kuzatuv kengashi majlisi kengash raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Kuzatuv kengashi, Taftish komissiyasi, Boshqaruv a'zosining, Ichki audit xizmati rahbari, tashqi auditorning yozma talabiga binoan chaqiriladi. Kuzatuv kengashi majlisini chaqirish haqidagi yozma talabda majlisni chaqirish, o'tkazish sabablari va uning kun tartibi ko'rsatilishi kerak.
23. Kengash majlisi unda saylangan a'zolarning 75 (etmish besh) foizi ishtirok etganda, vakolatli (kvorum to'plangan) deb hisoblanadi. Agar qonunchilikda va mazkur Ustavda boshqa qoida belgilanmagan bo'lsa, Kuzatuv kengashi majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.
24. Bank Ustav kapitalini ko'paytirish va Bank Ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.
25. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.
26. Bank Kuzatuv kengashining qarorlari sirtdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Kuzatuv kengashning barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.
27. Bank Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

28. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra Bank Kuzatuv kengashi a’zolariga ular o‘z vazifalarini bajarib turgan davrda haq to‘lanishi va Kuzatuv kengashning a’zosi vazifasini bajarish bilan bog‘liq xarajatlari qoplanishi mumkin.

29. Bank Kuzatuv kengashi a’zolari Bank va uning aksiyadorlari oldidagi o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganliklari uchun qonunchilikka va mazkur Ustavga muvofiq javobgar bo‘ladilar. Kuzatuv kengashi majlisida ovoz berishda qatnashmagan yoki Bankka zarar yetkazishga olib kelgan qaror uchun qarshi ovoz bergen Bank Kuzatuv kengashi a’zolari javobgar bo‘lmaydi.

30. Bank Kuzatuv kengashi majlisi o‘tkazish sanasi, vaqt, joyi va kun tartibiga kiritilgan masalalar haqidagi xabar Kuzatuv kengashi raisi yoki uning topshirig‘i bilan bank Boshqaruvi tomonidan bank Kuzatuv kengashi a’zolariga yuboriladi.

31. Bank Kuzatuv kengashining majlisi kun tartibidagi masalalar bo‘yicha bayonnomalar loyihasi va zarur bo‘lgan ma’lumotlar bank Boshqaruvi tomonidan tayyorlanadi.

32. Bank Kuzatuv kengashi majlisi uning a’zolarining birgalikdagi shaxsiy ishtirok etish yoki sirdan ovoz berish yo‘li (so‘rov o‘tkazish yo‘li) bilan o‘tkaziladi. Shuningdek, Kuzatuv kengashi a’zosining shaxsan ishtirok etish imkonni bo‘lmaganda, ularning identifikatsiya qilish imkonini beruvchi texnik vositalar va texnik jihozlar mavjud bo‘lganda Kuzatuv kengashi majlisi videokonferens-aloqa (shu jumladan, Zoom) rejimida ham o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yiladi.

33. Bank Kuzatuv kengashi majlisini o‘tkazish shakli kun tartibidagi masalalarning xususiyati va operativ ko‘rib chiqish zarurligidan kelib chiqib belgilanadi. Bank Kuzatuv kengashi majlisini o‘tkazish shaklini belgilashda, uning o‘tkazilishini talab qilgan shaxslarning fikri ham inobatga olinadi.

34. Bank faoliyatini amalga oshirishga doir hamda operativ tarzda hal etilishini taqozo etuvchi masalalar Kuzatuv kengashi tomonidan so‘rov o‘tkazish yo‘li bilan ko‘rib chiqilishi mumkin.

35. So‘rov o‘tkazish yo‘li bilan ko‘rib chiqilayotgan masala bo‘yicha bayonnomalar loyihasi tayyorlanadi va tegishli ma’lumotlar, materiallar, asoslovchi hujjatlar va yozma tushuntirishlar bilan birgalikda Kuzatuv kengashi a’zolariga ko‘rib chiqish va imzolash uchun taqdim etiladi. Bunda bayonnomalar bank Kuzatuv kengashining barcha a’zolari tomonidan imzolanadi va bir ovozdan qabul qilinadi.

36. Quyidagi masalalar bank Kuzatuv kengashi a’zolarining birgalikdagi shaxsiy ishtirokidagi bevosita majlisida ko‘rib chiqiladi:

bank Boshqaruvi va Ichki audit xizmatining hisobotlarini ko‘rib chiqish;

Aksiyadorlar yillik umumiy yig‘ilishlarini chaqirish va o‘tkazish bilan bog‘liq masalalar;

bankning ustav kapitalini ko‘paytirish va Ustavga bu bilan bog‘liq o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish;

dividendlar miqdori va ularni to‘lash tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

bank Boshqaruvi raisi tayinlash, uning vakolatini muddatidan ilgari tugatish.

37. Bank Kuzatuv kengashining majlisiga maslahat ovoz berish huquqi bilan bank Boshqaruvi raisi ishtirok etadi, shuningdek bankning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari va mutaxassislari taklif etilishi mumkin.

38. Bank Kuzatuv kengashining majlisida bayonnomalar yuritiladi. Bank Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o‘tkazilganidan so‘ng o‘n kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi:

majlis o‘tkazilgan sana, vaqt va joy;

majlisda ishtirok etadigan shu jumladan axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar;

majlisning kun tartibi;

ovozi berishga qo‘yilgan masalalar, ular yuzasidan o‘tkazilgan ovoz berish yakunlari;

qabul qilingan qarorlar.

39. Bank Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni bank Boshqaruviga ijro etish uchun topshiriladi. Bank Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning umumiyligini yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot bank Boshqaruviga bank Kuzatuv kengashining majlisi o‘tkazilgan kuni topshiriladi.

### **5-bob. Kuzatuv kengashi a’zolarining huquqlari va majburiyatları**

40. Kuzatuv kengashi a’zosi quyidagi huquqlarga ega:

Kuzatuv kengashi majlisini chaqirilishini talab qilish, uning kun tartibiga masalalar kiritishni taklif etish;

Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan qatnashish, ish tartibiga muvofiq ajratilgan vaqt doirasida majlisda muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha so‘zga chiqish, ular bo‘yicha ovoz berish;

Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibidagi masalalar bo‘yicha ovoz berishda o‘zining alohida fikrini yig‘ilish bayonnomasiga kiritilishini talab qilish;

bankning muayyan davrdagi faoliyati natijalari, bankni rivojlantirish rejali to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborot olish;

bankning ichki me’yoriy hujjatlari, hisobotlari va boshqa moliyaviy hujjatlari bilan tanishish;

Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bank Boshqaruvidan zarur hujjatlarni olish;

Kuzatuv kengashi a’zosi vazifasini bajarib turgan davrda haq va o‘z vazifasini bajarish bilan bog‘liq xarajatlar uchun kompensatsiya olish.

41. Kuzatuv kengashi a’zolari o‘rtasida vazifalar Kuzatuv kengashi raisi tomonidan taqsimlanadi. Hisobot yil yakunlari bo‘yicha Korporativ boshqaruv tizimi va bank faoliyatining moliyaviy natijalarining xolisona baholanishi natijalariga ko‘ra Kuzatuv kengashi a’zolariga mukofot to‘lanishi mumkin.

42. Kuzatuv kengashi a’zolarining majburiyatları quyidagilardan iborat:

Kuzatuv kengashi majlislarida faol ishtirok etish, o‘z huquqlarini amalga oshirishda va o‘z majburiyatlarini bajarishda bank va uning aksiyadorlari manfaatlарini ko‘zlab ish tutish;

qonunchilik hujjatlari, bank Ustavi, mazkur Nizom va Aksiyadorlar umumiyligini yig‘ilishi qarorlaridan kelib chiquvchi barcha majburiyatlarini vijdonan va oqilona bajarish;

bank faoliyatiga doir maxfiy ma’lumotlarni, shuningdek tijorat va bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni oshkor etmaslik;

o‘z manfaatlari va bank manfaatlari qarama-qarshiligiga olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarni amalga oshirmslik;

bank bilan bitim tuzishda affillangan shaxs ekanligi to‘g‘risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma’lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko‘rsatgan holda yozma bildirish yuborish orqali bankka xabardor etish;

Kuzatuv kengashi majlisi va Aksiyadorlarning umumiyligini yig‘ilishida u manfaatdor shaxs deb tan olinishi mumkin bo‘lgan bank bilan tuzilayotgan bitim to‘g‘risida masala hal qilinayotganda muhokama va ovoz berishda qatnashmaslik;

### **6-bob. Bank aksiyadorlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish**

43. Bank aksiyadorlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish bank Kuzatuv kengashi tomonidan quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

Aksiyadorlar umumiyligini yig‘ig‘ilishlariga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish, ularda ovoz berish hamda ovozlarni sanash va qarorlar qabul qilish tartibini nazorat qilish;

ustav kapitalini ko‘paytirish yoki kamaytirish, qo‘shimcha qimmatli qog‘ozlar chiqarish va boshqa usullar bilan ustav kapitalidagi ulushlar o‘zgartirilganda aksiyadorlar huquqlari cheklanishiga yo‘l qo‘yilmaslik;

bankning samarali dividend siyosatini ishlab chiqish va yuritish;

bank aksiyadorlarining o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish;

bank Boshqaruvining g‘ayriqonuniy va asoslanmagan xatti-harakatlari ustidan aksiyadorlarning shikoyatlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish.

### **7-bob. Bank Kuzatuv kengashi a’zolarining javobgarligi**

44. Bank Kuzatuv kengashi a’zolari o‘z huquqlarini amalga oshirishda o‘z burchlarini bajarishda bank manfaatlarini ko‘zlab ish tutishlari lozim.

45. Bank Kuzatuv kengashining a’zolari qonun hujjatlari va bank Ustaviga muvofiq bank va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

46. Bank Kuzatuv kengashi yig‘ilishida ovoz berishda qatnashmagan yoki bankka zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan qarorga qarshi ovoz bergen bank Kuzatuv kengashi a’zolari javobgarlikdan ozod qilinadi.

### **8-bob. Yakuniy qoidalar**

47. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

48. Mazkur Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

49. Kuzatuv Kengashi qarorlari va unga tegishli xujjatlar yig‘ma jild sifatida bankda saqlanadi va ularning butligiga, saqlanishiga bank boshqaruvi javobgar xisoblanadi. Hujjatlar bo‘yicha ish yuritish, (ro‘yxatga olish) banka boshqaruvining tegishli bo‘linmasiga yuklatiladi.

50. Ushbu Nizomning ayrim qoidalari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi yoki bank Ustaviga zid bo‘lsa, bunday qoidalari o‘z kuchini yo‘qotadi, mazkur Nizomga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgunga qadar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki bank Ustaviga rioya qilinadi.

51. Ushbu xujjat qabul qilinishi bilan ushbu mazmundagi bundan oldin qabul qilingan nizom o‘z kuchini yo‘qotgan xisoblanadi.

52. Mazkur Nizom kuchga kirishi munosabati bilan 2023 yil 22 iyundagi 13-sonli aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan “Madad Invest Bank” aksiyadorlik tijorat bankining “Kuzatuv kengashi to‘g‘risi”dagi nizom o‘z kuchini yo‘qotadi.



